

**MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARDA KOMMUNIKATIV
KO`NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA KATTALARNING RO`LI.**

Djuxonova Noxida Xayotjonovna

Qo`qon universiteti, Ta`lim kafedrasi dotsenti

Annotasiya: *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ qobiliyatlarni shakllantirishiga ta`sir qiluvchi psixologik omillar, bevosita oilaviy munosabatlarda, tengdoshlar guruhida, guruhlararo munosabatlarda namoyon bo`ladigan kommunikativ aloqa sifatlari bog`liqligini “Kommunikativ imkoniyatlarni o`rganish” metodikasi asosida aniqlangan.*

Kalit so`zlar: *kommunikativ, grammatika, intensiv, “til kompetentsiyasi”, kompetentsiya, xulq-atvor, kompetentsiya.*

**РОЛЬ ВЗРОСЛЫХ В ФОРМИРОВАНИИ КОММУНИКАТИВНЫХ
НАВЫКОВ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА.**

Джухонова Нохида Хаитжоновна

Кокандский университет

Доцент кафедры образования

Аннотация: *В данной статье на основе методики “исследования коммуникативных возможностей” определены психологические факторы, влияющие на формирование коммуникативных способностей у дошкольников, связь качеств коммуникативного общения, проявляющаяся непосредственно в семейных отношениях, в группе сверстников, в межгрупповых отношениях.*

Ключевые слова: *коммуникативный, грамматический, интенсивный, “языковая компетентность”, компетентность, поведение, компетентность.*

**THE ROLE OF ADULTS IN THE FORMATION OF COMMUNICATIVE
SKILLS IN CHILDREN OF PRESCHOOL AGE.**

Dzhukhanova Nokhida Khayotzhonovna

Kokan University

Associate professor of the Department of Education

Annotation: *in this article, psychological factors affecting the formation of communicative abilities in preschool children are determined on the basis of the*

methodology “study of communicative capabilities”, in which the qualities of communicative communication manifested in direct family relationships, peer groups, intergroup relations are related.

Key words: *communicative, grammar, intensive, “language competence”, competence, behavior, competence.*

Jahonning turli mamlakatlarida so'nggi yillarda ontogenezda kommunikativ qobiliyatlarning rivojlanishi, maktabgacha yoshdagi bolada kommunikativ qobiliyat, uning kognitiv, hissiy-emotsional hamda bevosita kommunikativ sohalarining rivojlanishi va namoyon bo'lishiga oid zamonaviy texnologiyalar amaliyotga tatbiq etilgan. Psixik taraqqiyot qonuniyatlariga ko'ra, maktabgacha yosh davri o'ziga xos yosh bosqichi bo'lib, bolada kognitiv, hissiy-emotsional, kommunikativ sohalar intensiv ravishda rivojlana boshlaydi, ayniqsa, bola o'yin faoliyati davomida, tengdoshlar va kattalar bilan o'zaro aloqa o'rnatish orqali ijtimoiy tajriba hamda ijtimoiy munosabatlar tizimini o'zlashtiradi. Bu esa o'z-o'zidan ijtimoiylashuv jarayonini ta'minlaydi va bola kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, ilg'or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda bolalarda intellektual, axloqiy, estetik, jismoniy va muloqot madaniyatini rivojlantirish kabi sharoitlarni yaratish, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirishning me'yoriy asoslari yaratildi. Jumladan, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturida ham ota-onalarning pedagogik madaniyatini, farzand tarbiyasi borasidagi burch va mas'uliyatini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan. Natijada maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ qobiliyatni shakllantirishning psixologik mexanizmlarini aniqlash, ta'lim tizimining boshlang'ich bosqichidayoq shaxs sifatida shakllantirishga oid ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirishga imkoniyatlar yaratildi.

O'zbekistonlik psixolog olimlari tomonidan ham bu borada e'tiborga loyiq izlanishlar olib borilgan. Ularning tadqiqot ishlarida maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot ko'nikmalarining shakllanishi, bola shaxsini tadqiq etishga doir amaliy metodikalar hamda bola shaxsida ijtimoiy xulqatvor namunalarining shakllanishi, bolalarda assimetriya hissi va uning o'quv

faoliyatiga ta'siri kabi ilmiy mulohazalar tadqiq etilgan. Jumladan, M.G.Davletshin, E.G'.G'oziev, K.B.Qodirov, V.M.Karimova, A.M.Jabborov, Z.T.Nishonova, R.I.Sunnatova, S.Axunjonova, Sh.A.Dusmuxamedova, D.I.Ilxamova, O'.B.Shamsiev, M.A.Narbasheva, R.N.Ismaylova, L.Nazirova, D.M.Mirzajonova, B.B.Nurullaeva kabi tadqiqotchilarning izlanishlari tahsinga sazovordir. Mamlakatimiz olimlari yuqorida keltirilgan xorij tadqiqotchilaridan farqli o'laroq, muammoning ontogenetik va oila muhiti omillari bilan bog'liqlik jihatlari orqali, ushbu jihatlarning etnopsixologik qirralarini ham yoritishga keng e'tibor qaratishgan.

G'arb olimlari ham kommunikativ kompetentsiya tushunchasi borasida o'z qarashlarini tavsiya etganlar. Amerikalik antropologist olim D. Hymes ilk bor mazkur tushunchani aniqlagan, uning fikricha "kommunikativ kompetentsiya lotincha so'z bo'lib, mos kelish, o'xshash, erishaman ma'nolarini anglatadi, kommunikatsiya jarayonida grammatika qoidalariga amal qilish va tildan foydalana olish qobiliyatidir". N.Xomskiy esa "til kompetentsiyasi", insonni ichki mental grammatikasi deb nomlagan, bunda til qoidalari abstrakt ko'rinishda bo'lib, ona tilida faoliyat yuritish, individni ong ostida intuitsiya shaklida tasavvur qilishdir" deb ta'rif beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirish oilada boshlanadi. Bolalar birinchi muloqot ko'nikmalarini oila a'zolari bilan aloqa orqali olishadi. Kommunikativ qobiliyat nafaqat bilimlarni, nutqni oqilona shakllantirish qobiliyatini anglatadi. Maktabgacha tarbiyachi va kattalar o'rtasidagi muloqot oqsoqollarni hurmat qilishni odat qiladi. Maqsad ushbu to'rt toifani bolalar bilan kunlik mashg'ulotlarga kiritish, ularning ongini va ko'nikmalarini tushunishni oshirish, keyinchalik ularning sezgir va ifodali til ko'nikmalarini oshirishdir, dedi u. Bir necha oy ichida Katalini talabalarning kuchli tillarni yaxshilaganini maqtadi. "Men buni ko'ryapman so'z boyligi bolalar o'sib bormoqda va ularning takliflari yanada murakkablashmoqda », dedi u. Ular so'zlarni jumladan ishlatadilar va shunchaki narsalarni ta'kidlamaydilar. Agar paltosi ochilmagan bo'lsa, ular: "Jaklin xonim, siz paltoni mahkam bog'lay olasizmi?" - deyishadi, shunchaki fermuarga ishora qilishning o'rniga. Ushbu yosh guruhida ba'zan almashish bilan bog'liq muammolar mavjud, shuning uchun biz o'zlarining tengdoshlari bilan qanday munosabatda bo'lganliklarini va o'zlarining his-tuyg'ularini ifoda etish uchun qo'llaridan emas, balki so'zlaridan qanday foydalanishni ko'rsatamiz. Shunga qaramay, boshqa avlodga mansub bo'lgan odamning jamiyati bolaga tengdoshlaridan yoki ota-onasidan ololmaydigan bilimlarni olib keladi. Bobo va buvilarning hayotiga oid ko'plab qarashlar eskirgan. Keksa odamlar yoshlikni tushunmaslikka moyil. Maktabgacha tarbiyachilar bilan muloqot ikki avlod

o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etishga yordam beradi. Ularning til ko'nikmalari va ijtimoiy aloqalari kengaymoqda. Sent-Jozef Protektor Maktabining bolalikdan direktori Liz Gullotti o'quvchilarning muloqot qobiliyatlari qanday o'sganini bilishdan juda xursand. Ota-onalar bilan gaplashganda, ular shunday ajoyib narsalarga ega, ular bolasining muloqot va til qobiliyatlari haqida gapirish mumkin. Agar bolada nutq yoki aloqa muammosi bo'lmasa ham, ular hali ham ushbu sinfdan foyda olishadi. Katalini bolalar o'zlarining qobiliyatlari bilan aloqa qilishlari uchun sinfda o'rgangan ko'nikmalaridan foydalanishda davom etishiga umid qilmoqda. Maktabgacha tarbiyachilar va kattalar o'rtasidagi muloqotning afzalliklariga qaramay, ularni tengdoshlari bilan aloqalar bilan almashtirishning hojati yo'q. Shakllanishi aloqa qobiliyatlari bolalarda bir xil yoshdagi odamlar jamiyatida sodir bo'ladi. Tengdoshlari bilan maktabgacha tarbiyachi ota-onalarga qaraganda kamroq vaqt sarflashlari kerak. Kattalar, bolalar o'zlari bir xil yoshda bo'lishganiga qaramay, bolalar bilan muloqotning barcha xususiyatlarini tushuna olmaydilar. Katta yoshli maktabgacha tarbiyachining ichki dunyosi xilma-xil va boy. 6-7 yoshga kelib, bola ko'plab ertaklarni biladi. Ushbu yoshdagi bolalarning muloqot diagnostikasi shuni ko'rsatadiki, o'g'il bolalar va qizlar o'zlari biladigan multfilmlarning hikoyalarini o'ynashga moyildirlar. Tengdoshlar bilan aloqalarni cheklash maktabgacha tarbiyachilar orasida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishni cheklaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishga doir ilmiy yondashuvlar, kommunikativ qobiliyatning metodologik asoslari, taniqli psixolog olimlarning ilmiy yondashuvlari va ishonchli tadqiqot metodlari, psixodiagnostik maqsadlarni amalga oshirish bosqichlari, dissertatsion izlanishda qo'llaniladigan metodikalarning umumiy tavsiflari berib o'tilgan. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarda kommunikativ qobiliyatlarni belgilovchi psixologik jihatlar hamda kommunikativ imkoniyatlar, ixtiyoriy xulq-atvor va oilaviy munosabatlar jarayonidagi sifatlar o'rtasidagi aloqadorlik omillarini aniqlashga qaratilgan. Ushbu kommunikativ qobiliyatni aniqlovchi "Bola bilan kommunikativ aloqa o'rnatish va ixtiyoriy xulq-atvor darajasini aniqlash" (L. Krasilnikova) so'rovnomasidan foydalandik. Natijalar quyidagicha izohlandi.

1-jadval

"Bola bilan kommunikativ aloqa o'rnatish va ixtiyoriy xulq-atvor darajasini aniqlash" so'rovnomasi natijalari

Shkalalar	Quva tumani 28-DMTT (n=25)	Quva tumani 33-DMTT (n=30)

	O'gil bola	Qiz bola	O'gil bola	Qiz bola
To'g'ri javoblar	8	7	11	8
Noto'g'ri javoblar	3	1	5	2
Betaraf javoblar	2	3	2	2

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibtki DMTT ning tayyorlov guruhlarida ya'ni 6-7 yosh bolalarda so'rovnoma o'tkazilganda har uchala shkala bo'yicha hisoblab chiqilgan. Bunga ko'ra "Bola bilan kommunikativ aloqa o'rnatishva ixtiyoriy xulq-atvor darajasini aniqlash" bo'yicha har ikkala bog'chada tarbiyalanayotgan bolalarga savollar murojiat qilinganda Quva tumanidagi 28-DMTT da jami 25 ta sinaluvchi bo'lib ularning o'g'il bolalardan 8 nafari "To'g'ri javob" berishdi qiz bolalardan esa 7 nafari to'g'ri jaob berishdi. "Noto'g'ri javob" shkalasi bo'yicha o'g'il bolalardan 3 nafari qiz bolalardan 1 nafari noto'g'ri javob berishdi. "Bartaraf javoblar" shkalasi bo'yicha 2 nafar o'g'il bolalar 3 nafar qiz bolalarning javoblariga tuzatishlar kiritildi.

Umumiy holda olganda, sinaluvchilarning savollarga bergan javoblaridan shuni kuzatish mumkinki, kattalar, ota-onalar va tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi kommunikativ aloqalarning ijobiy shakllanganligi, bolaning xohish-istaklarini kattalar inobatga olishi, tarbiyalanuvchilarning aqliy qobiliyat xususiyatlari, ularning psixologik maydonda bemalol faoliyat yuritishi bilan belgilanadi.

Navbatdagi Quva tumanida joylashgan 33-DMTT dan 30 nafar tayyorlov guruxidagi sinaluvchilar ishtirok etdilar. "To'g'ri javob" shkalasi bo'yicha 11 nafar o'g'il bolalar va 8 nafar qiz bolalar javob beridilar. "Noto'g'ri javob" shkalasi bo'yicha o'g'il bolalardan 5 nafari qiz bolalardan 2 nafari noto'g'ri javob berishdi. "Bartaraf javoblar" shkalasi bo'yicha 2 nafar o'g'il bolalar 2 nafar qiz bolalarning javoblariga tuzatishlar kiritildi.

Xulosa qilib umumiy holda olganda, sinaluvchilarning savollarga bergan javoblaridan shuni kuzatish mumkinki, kattalar, ota-onalar va tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi kommunikativ aloqalarning ijobiy shakllanganligi, bolaning xohish-istaklarini kattalar inobatga olishi, tarbiyalanuvchilarning aqliy qobiliyat xususiyatlari, ularning psixologik maydonda bemalol faoliyat yuritishi bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining qonuni. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida. T.: 2019-yil /16-dekabr, O'RQ-595-son. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019-y., 0319/595/4160-son).
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T.: O'zbekiston, 2016.- 56 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent., "O'zbekiston" 2017. – 488 b.
4. Akmalovna A. F., Xayotjoovna D. N. Qizlarni oilaga tayyolashda etnik stereotiplar va psixologik ustanovkalarini o'rganish //SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI. – 2023. – T. 6. – №. 12. – C. 282-291.
5. Akmalovna, Akramova Feruza, and Djuxonova Noxida Xayotjonovna. "QIZLARNI OILAGA TAYYOLASHDA ETNIK STEREOTIPLAR VA PSIXOLOGIK USTANOVKALARINI O'RGANISH." *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI* 6.12 (2023): 282-291.
6. Akmalovna, A. F., & Xayotjonovna, D. N. (2023). QIZLARNI OILAGA TAYYOLASHDA ETNIK STEREOTIPLAR VA PSIXOLOGIK USTANOVKALARINI O'RGANISH. *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 6(12), 282-291.
7. Dzhukhonova N. STUDYING ETHNIC STEREOTYPES AND PSYCHOLOGICAL STANDARDS IN PREPARING GIRLS FOR A FAMILY //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B5. – C. 13-16.
8. Dzhukhonova, Nokhida. "STUDYING ETHNIC STEREOTYPES AND PSYCHOLOGICAL STANDARDS IN PREPARING GIRLS FOR A FAMILY." *Science and innovation* 2.B5 (2023): 13-16.
9. Dzhukhonova, N. (2023). STUDYING ETHNIC STEREOTYPES AND PSYCHOLOGICAL STANDARDS IN PREPARING GIRLS FOR A FAMILY. *Science and innovation*, 2(B5), 13-16.
10. Djuxonova N., Qovlonbekov A. Oilaviy nizolar va ularning tavsifi //Conference Zone. – 2023. – C. 289-296.
11. Djuxonova, N., and A. Qovlonbekov. "Oilaviy nizolar va ularning tavsifi." *Conference Zone*. 2023.
12. Djuxonova, N., & Qovlonbekov, A. (2023, February). Oilaviy nizolar va ularning tavsifi. In *Conference Zone* (pp. 289-296).
13. Noxida D., Saida Q. TALABA QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI //Galaxy. International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 11. – C. 309-314.

14. Noxida, Djuxonova, and Qurbonova Saida. "TALABA QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.11 (2022): 309-314.
15. Noxida, D., & Saida, Q. (2022). TALABA QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 309-314.
16. Djuxonova N. X., Ergasheva Z. YOSH OILALARNING IJTIMOIIY VA PSIXOLOGIK MUAMMOLARI //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 11. – C. 128-135.
17. Djuxonova, N. X., and Z. Ergasheva. "YOSH OILALARNING IJTIMOIIY VA PSIXOLOGIK MUAMMOLARI." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.11 (2022): 128-135.
18. Djuxonova, N. X., & Ergasheva, Z. (2022). YOSH OILALARNING IJTIMOIIY VA PSIXOLOGIK MUAMMOLARI. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 128-135.
19. Akramova F. A. Main requirements psychological service for families //European Journal of Research and Reflection in Educational Science, Great Britain Progressive Academic Publishing.[Electronic resource]. – 2020. – C. 16-18.
20. Akramova, Feruza Akmalovna. "Main requirements psychological service for families." *European Journal of Research and Reflection in Educational Science, Great Britain Progressive Academic Publishing.[Electronic resource]* (2020): 16-18.
21. Akramova, F. A. (2020). Main requirements psychological service for families. *European Journal of Research and Reflection in Educational Science, Great Britain Progressive Academic Publishing.[Electronic resource]*, 16-18.
22. Akramova F. A. Psychological service and models of psychological assistance family as a necessary factor of family strengthening //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 4. – C. 1574-1579.
23. Akramova, Feruza Akmalovna. "Psychological service and models of psychological assistance family as a necessary factor of family strengthening." *ACADEMICIA: An International Mu* Akramova, F. A. (2021). Psychological service and models of psychological assistance family as a necessary factor of family strengthening. *ACADEMICIA: An International*

Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 1574-1579. *Itidisciplinary Research Journal* 11.4 (2021): 1574-1579.

24. Akramova, F. A. (2021). Psychological service and models of psychological assistance family as a necessary factor of family strengthening. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1574-1579.

25. Akmalovna A. F., Safarovna T. M., Shakatulloyevna U. S. Violence In The Family And The Need For Psychoprophylactic Measures //The American Journal of Applied sciences. – 2021. – T. 3. – №. 02. – C. 63-72.

26. Akmalovna, Akramova Feruza, Tovbayeva Mukaddam Safarovna, and Ummatova Sitora Shakatulloyevna. "Violence In The Family And The Need For Psychoprophylactic Measures." *The American Journal of Applied sciences* 3.02 (2021): 63-72.

27. Akmalovna, A. F., Safarovna, T. M., & Shakatulloyevna, U. S. (2021). Violence In The Family And The Need For Psychoprophylactic Measures. *The American Journal of Applied sciences*, 3(02), 63-72.